

---

***Modern education and development***  
**“OYDINDA YURGAN ODAMLAR” QISSASIDA MILLIY**  
**QADRIYATLAR TALQINI**

---

***O‘ngboyev Ramazon Mahmadali o‘g‘li***

*Qarshi davlat universiteti 1-bosqich talabasi*

[ongboyevramazon2@gmail.com](mailto:ongboyevramazon2@gmail.com)

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Tog‘ay Murodning “ Oydinda yurgan odamlar” qissasi haqida so‘z yuritiladi. Shuningdek, asosan, qissada o‘zbek xalqining milliy qadriyatlarini, urchodatlarini, an’analari badiiy ifoda etiladi.

**Kalit so‘zlar:** milliy qadriyatlar, urchodatlar, milliylik, o‘zlik, atlas, bug‘doy.

**Abstract:** This article talks about Togai Murod’s story “ People walking on the moon”. Also, the national values, customs and traditions of the Uzbek people are expressed artistically in the story.

**Key words:** national values, traditions, nationality, identity, atlas, wheat.

**Аннотация:** Эта статья посвящена рассказу Тогая Мурада «Люди, идущие по Луне». Также в рассказе художественно выражены национальные ценности, обычаи и традиции узбекского народа.

**Ключевые слова:** национальные ценности, традиции, национальность, самобытность, атлас, пшеница.

Milliy qadriyatlar – har bir millatning o‘ziga xos xususiyatlarini ifodalovchi falsafiy tushuncha bo‘lib, o‘sha millat bosib o‘tgan ijtimoiy taraqqiyot jarayonida shakllangan milliy madaniy meros xazinasiga qo‘shegan hissalarini, ulushini ifodalaydi. Xuddi shu o‘ziga xoslik millat madaniyatida, adabiyotida, dinida, tarixiy xotirasida, yashash, ishlash va fikrlash tarzida, urchodatlarida, rasm-rusumlarida, bayram-u sayllarida o‘z ifodasini topadi. Bir so‘z bilan aytganda, milliy qadriyatlar – milliy ma’naviy madaniyat ifodasi bo‘lib, har bir millatning insoniylik xazinasiga, qo‘shegan hissalarning hosilidir.

[cyberlinenka.ru]

Tog‘ay Murodning “ Oydinda yurgan odamlar” qissasida ham o‘scha zamonning urf-odatlari hozirgi zamonga kelib ham saqlanib qolib yanada rivoj topib borayotganiga guvoh bo‘lishimiz mumkin.

- Joyi chiqib turibdi, ho‘p deya ber. Qoplon ikki yelkasiga uy tiksa bo‘ladigan yigit.

- Men undaychikin odamni bilmayman...

- Endi bilasan-da. Aytganimdan qolma . Chiroying borida chinoringni top!

Oymomo cho‘qqa tikilmish ko‘yi o‘tira berdi. Cho‘g‘ Oymomoning yuzlaridan, Oymomoning yuzlari cho‘g‘dan qolishmadi. Yanga bo‘lmish kenjasini Oymomoga berdi.

- Bo‘ldi, sukut alomati rizo, - dedi.

“ Cho‘g‘ Oymomoning yuzlaridan, Oymomo yuzlari cho‘g‘dan qolishmadi. [1.5]

Birgina shu jumla orqali o‘zbek qizlarining naqadar uyatchang ekanligi hamda hattoki taqdiri masalasi hal bo‘layotgan vaziyatda ham boshini quyi egib, o‘zidan kattalarning so‘zlariga qulq solib tinglab turishini ta’kidlab o‘tmoxda. Yozuvchi bu bilan o‘zbek qizlarining qanchalik andishali ekanligini ochib bergen desak yanglishmagan bo‘lamiz.

Nikoh o‘qilish mobaynida onasi kuyov yelkasiga beqasam chopon yopdi. Beqasam yelkasidan igna bilan ip o‘tkazib oldi. Bu, kuyov-qayliq hamisha birikib yursin, ajralib ketmasin, degani bo‘ladi. Ip uchlarini tugmadi. Kelin-kuyov taqdir-peshonasi tugilmasin, deya shunday qildi. Hamisha bug‘doyday serob bo‘lsin, bola-chaqali bo‘lsin deya, kuyov boshi uzra bir hovuch bug‘doy sepdi.

[1.8]

Sir emaski, o‘zbek to‘ylari turli xil rasm-rusum bilan urf-odatlarsiz bo‘lmoxdi. Ushbu qissada ham kuyovning onasining o‘g‘liga beqasam to‘n

## ***Modern education and development***

kiydirishi rasmiy ma'noga ega. Negaki o'zbek milliy matolari, shubhasiz, atlas, adres va beqasam to'ndir. Keyingi odatlarga qaraydigan bo'lsak, kelin-kuyov birga yursin deb, kiyimlaridan ip o'tkazishadi, ammo ipning uchini tugmaydilar er-xotin ajralib ketmasin degan ma'noda . Yana bir jumlaga e'tibor qaratishimiz lozimki, “ bug'doyday serob bo'lsin- bolali-chaqali bo'lsin “.

Ma'lumki, mamlakatimiz mustaqillikdan oldin barcha yerlarga paxta va bug'doy ekishgan va shu orqali kechirishgan. Bir boshoq bug'doydan ko'p hosil olish mumkin. Yozuvchi bu yerda shuni ta'kidlayotgan bejiz emas. Qizlar kelinga bo'lishdi, ko'zinga qara!

- deyishdi.

Emishki, yo kuyov, yo kelin birinchi bo'lib birovi oyog'ini bossa, ana shu ro'zg'orda umr bo'yi o'ktam bo'ladi! Kelin, kuyov oyog'idan ko'z uzmadi. Chapiga qarab yurdi. Chap oyog'i bilan kuyov oyog'ini bosmoqchi bo'ldi. Kuyov epchillik bilan o'ng oyog'ini tortib oldi. Kelin oyog'i ko'rpachani bosib oldi. Kuyov chaqqonlik qilib, kelin oyog'ini bosdi. Bo'zbolalar g'olibona qah-qaha urdi;

- Kuyov bosdi, kuyov o'ktam! – dedi.

[1.9]

It g'irillar,  
Kampir o'ldi,  
Soch siypatar,  
Qo'l ushlatar bo'ldi.

[1.10]

Ma'lumki, o'zbeginiz to'ylarida kelin kuyovnikiga kelish jog'ida ko'plar marosimlar qilinadi. Yuqoridagilar shular jumlasidan desak yanglishmagan bo'lamiz. Bu an'analarimizga yuz yillar bo'ldi desak ham mubolag'a bo'lmaydi. Negaki o'zbek xalq og'zaki ijodiga mansub bo'lgan “ Alpomish” dostonida bevosita shu marosimlarga ko'zimiz tushadi.

## ***Modern education and development***

---

... Bahmal o‘tovda chimildiq tutib, kuyov navkarlari bilan kirgizmoqchi bo‘lib, bir nechta xotinlar “kampir o‘ldi” bo‘lib, o‘lganiga bir nima olib, “it irillar” degan rasmini qilib, bunda ham bir nima berib, har zamon salom solib, uydan ichkari kirib, chimildiqqa o‘tirib, oldiga dasturxon solib... kuyov navkarlarga do‘ppi, ro‘mol, sarpoylar berib, kuyov navkarlar chiqib ketdi. Barchinni bekning ... qoshiga olib kirib, xotinlar rasmini qilib, “choch siypatar”, “qo‘l ushlatar”ini qilib bir nechta yangalar har qaysisi o‘z manziliga ketdi.

[2.44.45]

Soydan ho‘kiz suvlatgan,  
Do‘mbirani kuylatgan,  
O‘g‘illarni uylatgan-  
Qaynotamga bir salom!  
Osmondagи yulduzday,  
Qoshi qaro qunduzday,  
Dili oydin kunduzday-  
Qaynonamga salom!

[1.17]

Kelin salom turkiy va boshqa xalqlarda har xil ko‘rinishlarda uchraydi. Kelin tushgan kunning ertasi kuni ertalab kuyovning ota-onasi va yaqinlariga nisbatan hurmat ma’nosida o‘tkaziladi. Kelin salomda dastlab qaynotasiga, so‘ngra qaynonasiga salom berishdan boshlanib eng kichik bolalar va qo‘shnilarga ham bag‘ishlanadi.

Kelin tong saharlab turadi. Kelin ayollar hamrohligida eshikni ochdi. Shu xonadonga sodiq bo‘lish ramzida it yalog‘iga ovqat quydi. Idish-tovoqlarga bir-bir nazar soldi. Porillab yonmish olovga moy tomizdi. Bu baxtli bo‘lish ramzi bo‘ldi. Nevara-chevarali bo‘lib yurayin deya qo‘liga go‘dak oldi.

[1.18]

## ***Modern education and development***

---

Biz o‘zbek xalqining qanday ajoyib urf-odatlari bor-a! “ Kelinlar tong saharlab turadi”. Darhaqiqat o‘zbek kelinchaklari “ xo‘roz qichqirmasi” turadi desak ham bo‘ladi. Chunki ertachidan turib, uydagilar uyg‘onmasidan ko‘chalarni supurib, barcha yumushlarni bajarib qo‘yadi. It o‘z egasiga qanchalik sodiq ekanligini bilamiz. Asarda ham kelin o‘z eri va oilasiga shunday vafodor bo‘lsin degan ma’noda itga ovqat qo‘yadi. Shuningdek, “ porillab yonmish olovga moy tomizdi” e’tibor qaratadigan bo‘lsak, olovga moy tomizsa, u olov uzoq vaqtcha o‘chmaydi. Bu yerda ham baxtning doimo porlab turishi, hech qachon o‘chmasligiga e’tibor berilgan. “ Kelinlar uvali-juvali bo‘lsin” deb bekorga aytilmaydi. Ya’ni kelinlar bola-chaqali bo‘lsin degani. Go‘dakni ko‘tarishda ham ana shu hikmat bor desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

E’tiborga molik jihat shuki, urf-odatlarimiz hanuz-hanuzgacha saqlanib kelinmoqda. Bundan keyin avlodlarga yetib boradi. “ Kim birinchi bo‘lib, oyog‘ini bossa, o‘sha ro‘zg‘orda umr bo‘yi o‘ktam bo‘ladi“. Shu jumla butun bir qisimni ohib boradi. Birorta o‘zbek xonadoni yo‘qli, erkak kishi bo‘lmasa. Bu yerda erkak kishining oila boshi ekanligi haqida fikr bildirilgan.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, Tog‘ay Murodning deyarli barcha asarlari xalqonaligi, milliyligi bilan o‘quvchilar mehrini qozonib kelmoqda. O‘zbekiston Qahramoni, Said Ahmad aytganidek, “ U ona yurtining kamalakdek yetti rangi aks etgan . Xonatlas suratini chizib ketdi. Tog‘ay Surxonning mungli va shu bilan birga sho‘x jo‘shqin qo‘shiqlarini kuylab o‘tdi. Bu qo‘shiq o‘lmay manguga ketadi”. Haqiqatdan ham ijodkorning ushbu asarlarida Surxon elining so‘lmas qadriyatlari bilan xalqimizning bag‘rikengligini shu bilan bir qatorda mehmondo‘stligini yozuvchining asarlarida ko‘ramiz. Tog‘ay Murodning “Oydinda yurgan odamlar” qissasini ne chog‘lik folklor asarlariga yaqin uslubni badiiy asarlarida ko‘rsakda, yozuvchining barcha asarlari xalq tilida yaratilganligi uchun ham, badiiy qiymatini yo‘qotmagan desak haqiqatga moyil bo‘ladi. Shuning uchun ham Tog‘ay Murodning barcha asarlarini o‘qib, ularni keyingi avlodlarga yetkazish bizning asosiy vazifamizdir.

## ***Modern education and development***

---

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. WWW.ziyo.uz. com – 2008. Tog‘ay Murod "Oydinda yurgan odamlar "
2. 9-sinf adabiyot. Q. Yo‘ldoshev, V. Qodirov, J. Yo‘ldoshbekov [Mas‘ul muharrir V. Rahmonov] Qayta ishlangan 4-nashri T:o’zbekiston NMIU-2019
3. Q. Nazarov "falsafa asoslari" T: " o’zbekiston faylasuflari milliy jamiyati"-2012
4. "O’zbek oilasi tarixidan" Bo’riyev O, Shoymardonov I, Nasriddinov K. T-1995
- 5.cyberlinenka.ru